



*Rus adabiyoti durdonalari*

*русская литература*

**B.A. Axmadulina**



**BOGSON**

22-30

821.161.1-31

unicat

A-98

Rus adabiyoti durdonalari

---

# BELLA AXATOVNA AXMADULINA



# BOG'BON

*She'rlar*

TOSHKENT – «O'ZBEKISTON» – 2021

UO‘K 821.161.1-1  
KBK 84 (2Ros-Rus)  
A 98

### **Rus tilidan**

*Karim Bahriyev, Rustam Musurmon, Ochil Tohir; O‘ktam Mirzayor;  
Abdumajid Azim, Oygul Suyundiqova*  
**tarjimalari**

**Axmadulina, Bella Axatovna**

A 98 **Bog‘bon:** she‘rlar / Bella Axmadulina. – Toshkent: «O‘zbekiston»  
NMIU, 2021. – 192 b.

ISBN 978-9943-7606-1-5


UO‘K 821.161.1-1  
KBK 84(2Ros-Rus)

Rossiya Federatsiyasi mukofoti sovrindori Bella Axmadulina XX asr oxiridagi eng buyuk rus shoirlaridan biri hisoblanadi. Uning she‘rlari o‘zi tiriklik chog‘idayoq dunyoning juda ko‘p tillariga tarjima qilingan. Shoir she‘rlarida muhabbat, odamlarga ishonch, Vatan manzaralari yuksak badiiy bo‘yoqlarda o‘z ifodasini topgan.

Bella Axmadulina mohir tarjimon hamdir. U ko‘plab shoirlarning she‘rlarini rus tiliga mohirlik bilan tarjima qilganligi uchun Xalqaro she‘riyat mukofoti «Nosside» (1992-y.)ga va «Briansa» Xalqaro she‘riyat mukofotlari (1998-y.)ga sazovor bo‘lgan.

B. Axmadulinaning she‘rlari juda ko‘p ijodkorlar tomonidan turli yillarda o‘zbek tiliga mohirlik bilan tarjima qilingan. O‘quvchilarning adabiyotga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish, tafakkurini kengaytirish maqsadida qiyosiy tarjimalar ham berildi.

Ushbu kitobdan shoiraning eng go‘zal she‘rlari o‘rin olgan.



ISBN 978-9943-7606-1-5

© K.Bahriyev va b. (tarj.), 2021.  
© «O‘zbekiston» NMIU, 2021.



\* \* \*

Kim ham bilar – mangu yo lahza  
bu dunyoda men ham bordirman.  
Shu lahza yo mangu uchun  
bu dunyodan minnatdordirman.

Ne bo'lsaham, icharman qasam,  
alqab umrim foniyligini:  
o'lsam – g'aming bir lahzaligi  
va ajalim boqiyiligini...





\* \* \*

Necha-necha yillar bo‘yi ko‘chamda  
qadamlar ovozi – do‘stlar ketmoqda.  
Do‘stlarimning sokin qadamlarini  
deraza ortida zulmat yutmoqda.

Miskin do‘stlarimning ishi nochor-da,  
uylarida kuymas, huzun<sup>1</sup> oqadi,  
faqat, avvalgiday, ko‘hna devorda  
Dega<sup>2</sup> chizgan qizlar qanot qoqadi.

Nachora, nachora, bechoralarim,  
tahlika uyg‘otmas bu oqshom sizni.  
Xoinlikning sohir ul jozibasi,  
do‘stlarim, qopladi ko‘zlaringizni.

O yolg‘izlik, sening fe’ling bema’ni!  
Temir pargaringni yarqiratgancha,  
foydasiz ohlarni sirqiratgancha,  
sovuq doiraga olding hammani.

Sen meni chorlagin, qilgin iltifot!  
Sening erkangman-ku, nechuk holsizlik,  
boshimni ko‘ksingga qo‘yay, ber najot,  
muzday quchog‘ingda isit, yolg‘izlik.

Sening o‘rmoningda adashib yuray,  
so‘ngida anglayin men kimligimni,  
bir barg topgan kabi yuzimga suray,  
farog‘at deb bilay yetimligimni.

---

<sup>1</sup> Huzun – ma’yuslik.

<sup>2</sup> Dega – rassom.



Sokinligin bergin kutubxonaning,  
ber tanholik kuyin sokin jarangin,  
men, axir, – donoman – jim unutarman  
o'lganni ham, qolganni ham – qaragin.

Anglarman hikmatni va uqubatni,  
ashyolar mag'zini uqtirar menga.  
Tabiat, go'dakday sirlarin ochar,  
qadim yelkasin tutib yelkamga.

O'shanda – ko'z yoshdan, g'am zulmatidan,  
moziy jaholati ichinda toyib,  
do'stlarning mukarram chehrasi chiqar  
va yana ko'zimdan bo'larlar g'oyib...





\* \* \*

...Ko'ngil tinchi uchun duoda turib,  
kuzning oddiy kuni, izg'irin, sovuq,  
hamma birdan anglar – bu olam aro  
hech qanday islohot, o'zgarishlar yo'q.

Qarzlarni to'lanmagan hamon, birodar,  
yelkamizda turar osilib hamon –  
og'riqlar o'shadir, o'sha maqsadlar,  
o'sha do'stlar do'stdir, dushman ham omon.

Jonajon do'stda ham, g'animda qattol  
aslo kamaymadi tashvishlar, dodlar –  
u hali tiriklik ichra borida  
qarshisida turgan hisob-kitoblar.

Faqat bitta ayol, bechora ayol,  
yomg'ir raqs tusharkan loyda g'izoli,  
bexos anglab qolar kechirilganin,  
shu ondan muqarrar rozi-rizolik...





## ANDREY VOZNESENSKIYGA

Ruhimizni qo'shdi she'r degan hunar,  
muhr bosdi moviy yulduzi shu on.  
Men o'z mohiyatim sevardim, axir,  
faqat sening bilan tursam yonma-yon.

Aytib bo'lmas qadar yaxshi hammasi  
sen-la, yetimlikda beg'uborliging,  
hasadsiz tan olar mening bu qalbim,  
uqtiradi sening ustuvorliging.

Manglaying haqida aytadi yonib:  
– Men o'zim ko'rganman, qoshning orasi  
kuyardi, yonardi tillorang tamg'a,  
Xudo inoyati – uning ma'nosi.

Mening tepamdagi peshonam haqda  
derdi u: toleyi bo'lmas mukammal!  
Aqli raso qilib pishirilmagan,  
sochi oqarguncha qilmagan amal.

Lekin bir narsada sendan o'taman,  
tirishaman hamda quvlik qilaman!  
Tangrim tovon so'rsa yulduzi uchun,  
eng oldin jazoni o'zim olaman.

Jasorat topaman, peshonam tutib,  
maqtanaman: menda iste'dod – shartsiz,  
ikkinchisi esa – u yomon emas,  
u – mitti, u pokdir, u hech bir aybsiz.



Menga shu qismatdir aqlimga ko'ra.  
Taqdirim shu erur, gar nima qilsam.  
Faqat shu. O'ylashga qo'rqaman hatto –  
senga nima bo'lar, agar men o'lsam.





## GURJISTON TUSHLARI

Gurjiston tushimda – bu quvonch!  
Tong chog‘i pokiza na qadar  
uzumning shirasi labtarosh,  
tilimni tilimlar bu shakar.

Hech narsaga achinmasman hech,  
Hech narsani istamasman ham –  
Tillorang Sveti-Tsxovelida  
yoqaman, qo‘yaman mildir sham.

Mtsxetining har mayda toshiga  
madh aytib, tilayman shavkat-shon.  
Xudoyim, ilohim buning hammasi  
Hozirgiday abad qolsin pokdamon.

Mayli, mening uchun bu bir xushxabar,  
ustimda fol ochsin har bir jonligi  
o‘z vatanimning qattiq qahri-yu,  
begona vatanning mehribonligi.



## GURJI AYOLLARINING ISMLARI

U yerda, dengizda chalkash yelkanlar,  
va, otashga qilmay e'tibor,  
sokin gullab yotgan platanlar  
noyabrda gulin to'kar beozor.

Qadimiy bu bog'da dildiroq do'kon  
oqarib turadi, gung, mubham  
va uzum hidini taratar larzon  
gurji ayollarning ismlari ham.

Ularni barg kabi shivirlashar jim,  
go'yo shitir-shitir kezar dengiz bo'yini  
va suzib chiqadi qora quv kabi,  
g'alati eggancha oppoq bo'ynini.

Qiqirlab kuladi ayol Lamara,  
Toshdan-toshga sakrab o'tar shu tobda,  
poshnachasi sinar toshlarga tegib,  
lo'ppi lablarini bo'yar sharobda.

Ho'l bo'ldi sochlari Medeyaning ham,  
tongda sharsharaga ilashib chigal,  
tomchilar quridi va sayozlashdi,  
qorayib ham ketdi so'ng mahal.

So'ng sambitgul hidin o'chirib,  
bir gulga jam etib, tarab bariga,  
parvoz qildi ismi Ariadnaning  
va qorishib ketdi olis, nariga.

Yog'och asosiga zo'rg'a osilib,  
U yerda arqon ham ivigan shu tob.  
«Sisana!» – deb chorlar derazadan kim.  
«Natela!» – deb kelar jarangdor javob...





\* \* \*

Qiqirlab, ochilib, sochilib yomon,  
chorasiz sog‘inchdan og‘ir jimlikda,  
Mohinjaurida, Batumi tomon,  
u turardi sokin botib qumlikda.

U ko‘p mag‘rur edi, edi dimog‘dor –  
o‘zini daryoday olardi baland,  
dengizga yalang‘och qadam qo‘ydi zor  
va tutdi dengizni qo‘llari bilan.

Ortiqcha chit ko‘ylak yechildi, ozod,  
shunday qilib bordi, qiyalab shunday.  
U yechib yubordi siynabandni shod,  
uni qumga otdi eski buyumday.

Uning yelkalari, oppoq to‘shlari  
qalbni qo‘zg‘ar edi, solardi g‘uluv.  
Avval chit ko‘ylagi berkitgan oqlik  
qoramtir rang bilan qorishardi quv.

U qiqirlar edi, shodon quvonchdan,  
suvni kafti bilan sachratar edi  
va uning boshidan yelkasigacha  
kamalak ranglari aks etar edi...



## ABXAZ JANOZALARI

Ikki qiz tashlardi kartoshkagulni,  
tashlardi oxista, goho betoqat,  
ayollar ham horg'in ocharlar dilni:  
– Bugun gullar qimmat – bugun falokat...

Ko'cha ham baqrayar och bir qo'rquvda,  
qizchalar oldinda borardi g'arib,  
arzon kimxoblarning jilvalarida  
ko'krakdagi qo'llar titrar oqarib.

Gulchambarlar og'ir, yuraklar og'rir,  
yetaklab ko'k kiygan kampirni zo'rg'a.  
Ha, sep uchun bari yig'ilgan narsa,  
aylandi oq-oppoq gulchambarlarga.

Qabristonda o'tdi og'ir marosim,  
hamma ham jonlangan, yengil titroqda,  
faqat bir ayolning ko'zi to'la g'am,  
qovog'i ichiga botib bormoqda.

Ichdilar, ichdilar tinimsiz ho'plab –  
dard qo'yib yubordi, simillab og'rir,  
yo'lda uzoq turdi sharobning bo'yi,  
ovozlar, shivirlar jaranglar og'ir.

Sarxushlikda kular hamma jo'rovoz,  
haydamoq istarlar o'limni dilda...  
yerga ko'mildi-ku qizcha Geuli.  
Qachondir – qaysidir olis bir yilda –



\* \* \*

– Hammasini qayta tikmoqlik kerak, -  
dedi chevar, – axir, may yaqin, shayman.  
– Hammasini boshdan kechirmoq kerak -  
dedim men ham, – axir, yaxshi anglayman.

Uzuklarning toshin almashtirgaymiz,  
malla soch gajagin kesarmiz o‘ylab,  
o‘zni boshqa o‘lka tomon boshlaymiz  
va kezamiz yana Gurjiston bo‘ylab.





## BEGONANING HUNARI

Bu begona hunar meni ezg'ilar.  
Ortdan chorlab, qilar gunohkor chindan,  
menga yordam bermas sira, na qilay,  
va olib qochadi o'zini mendan.

Axir, hunarimga abad sodiqman,  
xontaxta chetida she'r yozdim abgor,  
baribir rashk meni qiladi ado,  
boshqa ustamonlar bitganda ash'or.

Kinto xonish qilar yuksak ovozda,  
Tiflis mayxonasi, kelar havasim,  
surat namoyishi va-da kinoda  
havasla chiqadi har bir nafasim.

O'choqning ustasi yangi qo'rg'onda  
Tutun quvurini o'rnatgan chog'i,  
men ham maysalarga artaman sekin  
loylarga belangan oriq barmog'im.

Eh, xudda tasvirchi qilgani kabi –  
sassiz ergashgancha havasga to'lsang,  
qattiq yopishgancha uskunalarga,  
tanlangan unsurga sinchkov termulsang.

Oh, daraxt ekmoqlik chanqoqligi, voh,  
gulchelak-la qaqroq egatga kirmoq,  
sug'ormoq va go'zal sohibjamollar  
qaddin chizmoq uchun rang qorishtirmoq!



Shundoq, o'zgalarning qilmishi mendan  
javob talab qilar shafqatsiz, achchiq.  
Shu xasis quvonchga rahmat aytaman.  
Hech ne so'ramayman men bundan ortiq.





\* \* \*

Sen aytasan – axir, yig‘lamoq nechun.  
Ehtimol, to‘g‘risi, g‘amni uzgancha,  
yig‘lamlaslik kerak – kerakdir suzmoq  
sovuq daryolarda. Kerak suzgancha


barmoqlar tagida oqib yotgan shu  
tungi sof suvlarni kechmoqlik tamom,  
o‘zingga ozodlik tuhfa aylabon,  
suzmoq daryoning u qirg‘og‘i tomon.

Bejizmas olganim shirin nafaslar  
bepoyon Sibirda, toza, mastona,  
u yerda o‘t-o‘lan, nozik maysalar  
shivirlardi menga jim va do‘stona.

Senga qanday misol keltirsam ekan,  
menga nima bo‘lgan, nimalar bo‘lgan?  
Xotirda jimirlar ashqol-dashqollar,  
ular moviylikka, ko‘klikka to‘lgan.

Ohista suvlarning orasida jim  
yurgan qizil baliq ko‘zin zardobi,  
uning qanotchasin silkitgan ajib  
Boyko‘lning yashirin, sirli girdobi.

Va qirg‘oqlar uzra ko‘zga chalingan  
o‘sha xonadonlar, o‘sha saroylar,  
uzsang, qo‘lda darhol so‘lib qoluvchi  
guli alvon yovshan, guli chiroylar.



Oq-oppoq mo‘ynali o‘shal mo‘jiza –  
qo‘qqisdan chiquvchi olasichqonlar,  
menga termulardi sinovchan, intiq,  
qora qorachig‘i qadalgan jonlar.

Shundoq tortar edi daryo o‘ziga  
va jazo berardi, chuqur ko‘z edi.  
Kizir daryosining suvi qirrali,  
olovdek tortardi, o‘zi muz edi.

Mening quvligim ham etildi inkor,  
rad etildi sening chuqur ko‘zlaring  
va davo beruvchi achchiq doriday  
shifobaxsh so‘zlaring, taxir so‘zlaring.

Qayta-qayta tushar endi yodinga,  
u yerda, tuproq va javdarzor aro  
jimgina yashadim, bir so‘z aytmadim,  
yolg‘on ham aytmadim, demak, men aslo.





## SHE'RIYAT KUNI

Bunday bayram chiqdi qaysi tentakdan,  
She'riyat kuni deb qilmish sahovat?  
Mening izim ochgan o'sha yo'lakdan  
bayramga shoshilar bir xalq qatma-qat.

Oh, sharafli bir kun, so'zchilar shovvoz.  
Menda yo'q ularday hovur, jasorat.  
Men bazm qilmasman bunda jo'rovoz.  
She'r men uchun – mehnat, shavkatli zahmat.

Tomoshabin esa – ishonar, uyatvash.  
Axir, uning qalbi sodda, mehribon.  
Daholik, maddohlik bunda aralash,  
buni ajratmaydi sevgan olomon.

Hozircha quloqqa osarlar lag'mon,  
hali hech kim ko'rmas bunda alamlar,  
mening yuragimda yashar bir umid hamon –  
bekorga bo'lmasa kerak bayramlar.

Shoirlarning so'zi bejiz aytilmas,  
bekor jaranglamas shoir so'zlari,  
hayrat va hayronlik ichra miltirar  
o'g'illar, qizlarning chaqnoq ko'zlari...



## YANGI DAFTAR

Oq qog'oz oldida hijolat bilan,  
xavotirlar bilan turibman shunday.  
Ehrom qarshisida  
taqvodor kabi.  
Qiz ko'rib qizargan  
dovdir majnunday.

O'quvchi singari, yangi daftarga  
boqaman ishq bilan, ochofat quchib,  
so'ng uni qalam-la tirnab yozaman  
ko'ngilga quyilgan har bir fikr uchun.

Pokiza yozuvning sabog'i shirin,  
uzoqmas. Varaqni ag'dardim shunda.  
Oq qog'ozni shundoq ayladim qora,  
uni yozuvlarim qildi sharmanda.

O'rmonga kirganday, daftar ichiga  
shunday kirajakman abad, sazoyi,  
nur sochgan varaqlar ichida yolg'iz  
o'tarman o'zimga bergan jazoni...





## QADIMIY PORTRET

O‘tdi-ketdi bu ayol,  
kirdi suratga chuqur.  
O‘zi ko‘p dilbar edi,  
juda yosh edi, qurg‘ur.

Yashar edi ko‘p go‘zal,  
hissiyotli va bekam,  
yemasa kalamushday  
bu suratni og‘ir g‘am.

Chirpinardi xonada,  
chirillardi beomon.  
Barmog‘i xat g‘ijimlab,  
otar olovga tomon.

Erkak kirsam ishonch-la,  
sharob so‘rsa jarangdor –  
jilmayardi bu ayol,  
yengilgina, dimog‘dor.

Qora ustunli zalda  
o‘tkazardi bazm-hasham,  
tegar sovuq yenglari  
ayol qo‘liga biram.

Oq qo‘llar itoatli,  
quchar va sezar edi,  
lo‘lining oq barmog‘i  
g‘ijjakni ezar edi.

Erkak tiz cho‘kdi darhol,  
jalb etdi olis kamon,  
cho‘loqning yupqa yuzi  
boqdi yulduzlar tomon.

...Sahar xira yotoqda  
shamni jim yoqib qo‘ydi,  
jimjiloq ila issiq  
uzukni siqib qo‘ydi.

Qaradi, boqdi g‘amgin,  
yotardi o‘zi ayol,  
telbavor va baxtiyor,  
dunyodan rozi ayol.

Qora ko‘ylakli ayol  
eshikdan boqadi zor,  
ko‘rar – uy ayvoniga  
kelar sovqotgan tulpor.

Uzoq, dovdur o‘pich-la,  
qo‘lga tegar ohista,  
jaranglar sokin, sekin  
qo‘ng‘iroqlar olisda.

Yuksak pardalar uzra  
qo‘llar sinib, o‘t yoqur.  
Qabr ustidagi o‘tning  
ildizi o‘sar chuqur...



## SHOPENNING RAQS MUSIQASI

Bizga tushdi qay qismat,  
bu soat qanday omad,  
aylangan plastinka  
bizni ajratar faqat!

Avval nozik g'imirlar,  
go'yoki chiqqan toshdan,  
biroq Shopen tasviri  
jaranglay boshlar boshdan.

Ichida ko'm-ko'k suvli  
shisha idishday zilol,  
raqqosa qiz turibdi  
bo'ynini egib xiyol.

Nozik yelkalar turdi,  
polyakcha yuzi oppoq,  
mening ko'nglimni so'rdi,  
g'amimni oldi shu qandoq?

U qo'llarini cho'zar,  
g'oyib bo'lar narida,  
bor tovushlarni jamlar  
igna chizgan o'rada.





## VULQONLAR

Jimdir ulkan vulqonlar,  
tubiga to'kilgan kul.  
U yerda devlar uxlar,  
tolgan zulm qilib nuqul.

Mulklari borar sovub,  
yuki og'ir, ohlari,  
ammo tunlar tushiga  
kiradi gunohlari.

Tushiga kirar shahar,  
taqdirin bilmas, mahkum,  
ustunlarga aylanar,  
bog'dagi vulqoniy qum.

U yerda jonon qizlar  
bag'ri to'la chechakka,  
aysh qizlari qosh qoqar  
sharob ichgan erkakka.

Tobora dag'al, tentak,  
u yerda bazm qizir.  
O, qizaloq Pompeya,  
quldan tuqqan shoh qizi!

Qismatga bo'lib asir,  
neni o'ylading, axir,  
voh, qo'yding Vezuviyga  
jasorat bilan bag'ir!?

Tinglading hikoyasin,  
ko‘zlarini lang ochib,  
uning ishqiq qaynadi,  
otildi olov sohib.

U oxir, kun so‘ngida,  
peshonasin, Pompeya,  
qo‘ydi oyoqlaringga,  
yiqildi: «Kechir!» – deya.





## BOG‘BON

G‘ichirlama deyman ko‘cha eshikka,  
uzoq turaman jim uning yonida.  
Nozik bodrezakni silayman ichkin,  
Titroqni sezaman qora tanida.

Berkinib shu quvnoq barglar ortida,  
mushtimga kulaman jimgina, beg‘am.  
Ana, kovushini yamab o‘tirar  
mening baland do‘stim, yuksak do‘stginam.

Kulgili, mumlangan ip va ignasi,  
hali hech narsani bilmas, beega,  
vaxshiy baqiraman unga: «Assalom!»  
va o‘zim otaman issiq bag‘riga.

U bo‘lsa kuladi yoki yig‘laydi,  
egatlarga kirar oyog‘i yalang,  
qizil ovchi iti yonida, daydi,  
men tomon laqillar tillari bilan.

Bir qo‘lida turar hali boshmog‘i,  
dalli-yu devona, muallim, bog‘bon,  
yerto‘laga kirar va shishalarni  
qorong‘udan berar sekin men tomon.

Ko‘zoynagi tushib, chopqillab borar,  
menga termuladi zimdan, sarbaland,  
royalning changini aritar obdon  
titilgan, patila ro‘molcha bilan.

Oh, ey omadsizim, mening bog‘bonim!  
Mehribon qo‘shnilar kuladi chindan,  
oh, qancha yeb bo‘lmas meva-chevani  
ko‘tarding shu yerdan, qora zamindan!

Men bu mevalarni yeyman jimgina.  
Ular juda nordon, juda ham taxir,  
eshitilib turar – o‘tkir urug‘i  
tomoqni tirmalab o‘tadi og‘ir.

Bu dunyoda bir men tom ishonaman,  
Albatta gullaydi uning bog‘lari,  
g‘alati yarqirar dilgir shoxlarda  
to‘lishgan mevasi, ol yaproqlari.

U aytar: – Tasavvur qilasanmi sen –  
Ehtimol, o‘n yillar o‘tganda, shu tob  
sen bexos menga xat yozib yuborgung,  
men ham senga yozib, berarman javob...

Tasavvur qilaman, ana, daraxtlar,  
ko‘ryapman – ko‘zimni uzmasman aslo.  
Og‘ir olmalarning sokin qulashi  
maysalarni titar, ranglari tillo...

U baliqni titar sanchqida sekin,  
ko‘zlari yonadi ochofat, chanqoq,  
qattiq va tuzlangan shaftoli esa  
chirsillab chaynalar jag‘ida shu choq...



## OYPARASTLAR

Oy chiqadi va o'ch oladi hamon  
o'z olisligining azobi uchun.  
Oyparastlar cho'zar unga qo'llarin  
va qulday ortidan ergashar zabun.

Yovvoyi tafakkur qanotlarida,  
kunning zalvoridan charchagan, abgor,  
uchar ular, nurday shaffof hilqatlar,  
oy nuriga ipday osilib zor-zor.

Xuddi shundoq, sovuq, xasis yaltirab ,  
evaziga hech ne va'da qilmasdan,  
meni chorlar tinmay olis ul san'at,  
roziligim talab qilar tinmasdan.

Uning azobiga beramanmi dosh,  
qilararmi uning sehriga sabr  
va oyning nuridan ulgilar olib,  
yaratarmikanman sezimli satr?..





**B.A. Axmadulina**

**«O'ZBEKISTON»**

ISBN 978-9943-7606-1-5



9 789943 760615